

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI
UZOQ SHARQ VA JANUBIY OSIYO TILLARI FAKULTETI
JANUBIY OSIYO TILLARI KAFEDRASI**

Asosiy o'rganilayotgan til

“URDU TILI”

**Bakalavriaturaning
I kursi I - II semestrlari uchun
ma'ruza matni**

**kafedra majlisining
21.05.2008y. sanadagi
№ _____ sonli bayonnomasida
muhokama qilinib tasdiqlangan.**

**Soatlar hajmi - I – II semestr
Ma'ruza - _____
Amaliy mashg'ulot - _____**

**Tuzuvchi: _____
Taqrizchi: _____**

TOSHKENT-2008

KIRISH

Ma'ruza matni urdu tilining yangi davr hind tillari orasidagi o'rni, fonetikasi, grammatikasi— morfologiya va sintaksis shuningdek, so'z yasash kabi mavzularni o'z ichiga oladi.

Amaliy mashg'ulotlar esa asosan o'qish, yozish va og'zaki nutqni rivojlantirish bilan bog'liq mavzulardan iborat.

Nazorat turi turli imlo va kontrol ishlarini yozish, bayon va o'tilganlarga yaqin mavzuda insho yozish, doskada o'tilgan matn bo'yicha so'zlarni yozib topshirish, grammatikaga oid mashqlar tarjima qilish, shuningdek, test savollariga javob topish kabilarni o'z ichiga oladi.

BIRINCHI YARIM YILLIK

Soatlar taqsimoti:

ma'ruza- 100

amaliy- 40

reyting- 18

jami-158

1-MA'RUZA

KIRISH

Ma'ruza rejasi:

1. Hindiston va Pokistonning jo'g'rofiy joylashuvi
2. Hind tillarining klassifikatsiyasi.
3. Urdu tilining tarihi—khari boliy haqida.

Yangi hind tillarining kelib chiqishi. Hindiston tillariga arab- fors so'zlarining kirishi. Khari boliy-- hindustani—urdu, hindiy tillarining asosi.

O'zbekistonda hind tillari va adabiyotini o'rganish. Hind filologiyasi taraqqiyotiga O'zbekiston olimlarining qo'shgan hissi.

Savollar:

1. Hindistonga nechanchi asrdan boshlab musulmon bosqinchilari kirib kelgan ?
2. Ular qaysi regionni bosib olgan?
3. Urdu tili shakllanishida qaysi til asos bo'lgan?
4. Urdu tiliga arab-fors so'zlarining kirib borishi jarayonini tushuntirib bering.

2- MA'RUZA

FONETIKA

Unli tovushlar

Ma'ruza rejasi:

1. Urdu tilidagi unlilarning (20) qisqa va cho'ziq talaffuzi.

2. Diftonglarning (2) bir tovush bo'lib talaffuz etilishi.
3. Har bir sof unlining burunaki variantga ega ekanligi.
4. Urdu tilida yumshoq va qattiq undoshlarning mavjud emasligi.
5. Inglizcha tserebral tovushlar talaffuzi.

Qisqa va cho'ziq unlilar, diftonglar / murakkab unlilar/, sof va burunaki unlilar. Qisqa unlilar/ a, i, u / talaffuzi. Cho'ziq unlilar / a, i, u, e, o/ talaffuzi. Diftonglar / ao, ai/ talaffuzi. Burunaki unlilar/a, a, i, i, u, u, e, o, ai, ao / talaffuzi.

Undosh tovushlar

Urducha undosh tovushlarning umumiy xususiyati. Urdu tilida qattiq va yumshoq undoshlarning yo'qligi. O'zbekcha tovushlarga o'hshash va ruscha tovushlarga juda yaqin undosh tovushlar /b, p, m, n, t, d, k, g, l/ ning talaffuzi. Z, j, ch, s, sh, f, undoshlarning talaffuzi. Y Arim unlilar/ y, v, r / talaffuzi. Burunaki unlilarning talaffuzi. H va H tovushlari talaffuzi. Qerebral undoshlar/ t, d, r / talaffuzi. Nafasli tovushlar / b, p, t, d, ch, j, k, g, t, d, r / talaffuzi. N tovushining variantlari. Burunaki n. Ketidan m tovushi kelganda n tovushining o'zgarishi. Qo'shaloq undoshli so'zlarning talaffuzi. / zarra, pakka /. Ohirida ketma-ket ikki undosh kelgan so'zlarning talaffuzi / farz. mirch /.

Talaffuz o'rni va usuliga qarab urducha tovushlarning turlarga bo'linishi.

Urdu tilida so'z bo'g'inlarining xususiyati: ba, bu, bi turidagi ikkita qisqa bo'g'inning ketma-ket kelmasligi. Qisqa unli a ning nihoyatda qisqarishi va tushib ketishi.

Savollar:

1. Qisqa unlilarni yozib ko'rsating.
2. Burunaki unlilarning sof unlilardan qanday farqi bor?
3. Urdu tilida o'zbek tilida mavjud bo'lmagan undoshlar bormi?
4. «N» undoshining yana qanday turi bor?

3-MA'RUZA

URDU TILI ALIFBOSI

Ma'ruza rejasi:

1. Alifboga asos bo'lgan harflar (hindiycha).
2. Faqat arab so'zlariga hos bo'lgan harflar.
3. Bitta tovushga bir necha harfning to'g'ri kelishi.
4. Misra osti harakatlari
5. Misra usti harakatlari

/51 harf/. Asosiy, ya'ni dastlabki arabcha, forsha harflar /34 harf/. Qo'shimcha, ya'ni hindcha harflar/17 harf/. Bitta tovushni bildiruvchi harflar.

Faqat arabcha so'zlarda yoziladigan harflar. Forscha so'zlarda yoziladigan harflar. T, Z, S, H tovushlarining arabcha bo'lgan so'zlarda harflar bilan belgilanishi.

Ėzuv belgilari

Harakatlar, aarablar: zabar, zer, pesh, yotiq madda, tikka madda, sokin/sukun/, tashdid, hilol, hamza. Ėtiq madda, tashdid, hamza belgilarining yozilishi shartligi, boshqalarning odatda tushib qolishi.

Ėzuvda sof unlilarning belgilanishi. Burunaki n, burunaki unlilarning yozuvda belgilanishi. E, o unlilari h undoshi oldida kelganda qisqa yopiq unlilar a, i, u singari belgilanishi.

«ayn» harfi bo'lgan so'zlarning o'qilishi.

4- MA'RUZA MORFOLOGIYA OT

Ma'ruza rejasi:

1. Muzakkar jinsining yasalihi.
2. Muannas jinsining yasalihi.
3. Istisno holatlari.
4. Kelishiklar turlari va ularning yasalihi
Otlarning erkakcha va ayolcha jinslari. Otning jinsini aniqlashning ba'zi qoidalari.
Otlarning birlik va ko'plik sonlarini yasalihi. Ko'plik belgisi «log».

Kelishikning ta'rifi.

Urdu tilida otning asosiy kelishiklari: bosh kelishik, hitob kelishigi, qaratqich kelishigi, yo'nalish-tushum kelishigi, o'rin-yo'nalish kelishigi, chiqish-vosita kelishigi, chek kelishigi, ergativ kelishik. Hitob kelishigining suffikslar bilan yasalihi va qolgan vositali kelishiklarning orqa ko'makchilari /posleloglar/ bilan yasalihi. Kelishik alomatlari bo'lmish birlamchi posleloglar: ka, ko, se, me, par, tak.

Savollar:

1. Urdu tilida nechta kelishik bor?
2. Kelishik shakli qanday yasaladi?
3. Poslelog deb nimaga aytiladi?
4. Hitob kelishigi qanday suffikslar bilan yasaladi?

5- MA'RUZA OTLARNING VOSITALI ASOSI

Ma'ruza rejasi:

1. Posleloglarning qo'shilishidan avval ro'y beradigan holatlar.
2. Birlamchi posleloglar
3. Ikkiyamchi posleloglar

Vositali kelishik asosi. Asosiy kelishiklarning ma'nosi. Otlarning bosh kelishikda ega, vositasiz to'ldiruvchi va kesimning ot qismi vazifasida ishlatilishi.

Qaratqich kelishigining ma'nosi. Otlarning qaratqich kelishigida atributiv /ot oldidagi/ va predikativ /kesim bo'lagi bo'lmish/ aniqlovchi sifatida qo'llanishi. Qaratqich kelishigidagi otning o'zbek tiliga tarjima qilinishi. Qaratqich kelishik ko'rsatgichi ka poslelogining jins, son va kelishikda o'zgarishi.

Birlamchi va ikkilamchi vositali kelishiklar. Ikkilamchi vositali kelishiklarning ikkilamchi posleloglar bilan yasalishi.

Savollar:

1. Qaratqich kelishik shakli qaysi poslelog bilan yasaladi?
2. Qaratqich kelishigidagi ot gapda qaysi funktsiyada keladi?
3. «Ka» poslelogi jins, son va kelishikda qanday o'zgaradi?

6- MA'RUZA

SIFAT

Ma'ruza rejas:

1. Sifatning turlari: o'zgaruvchan va o'zgarmas.
2. Sifatlarining jins, son va kelishikda o'zgarishi.
3. Qiyosiy va orttirma darajalarning yasalishi.

Sifatning ta'rifi. O'zgaruvchi va o'zgarmas sifatlar. Sifatlarining jins, son va kelishikda o'zgarishi. Sifatning darajalari. Qiyosiy va orttirma darajalarning yasalishi. Miqdor va hususiyatning muayyan darajalarining ifodalanishi. Qiyosiy ibora va gaplarning tuzilishi. Sifatlarining aniqlovchi va kesim bo'lagi sifatida ishlatilishi.

- I suffiksi yordamida ot va ravishdan nisbiy sifat yasalishi. /havaa-havaai, baahr-baahri/.

Savollar:

1. Sifatning qaysi darajalarini bilasiz?
2. Ortirma daraja qaysi murakkab posleloglar bilan yasaladi?
3. Ot va ravishdan nisbiy sifat qanday yasaladi?

7- MA'RUZA

SON

Ma'ruza rejas:

1. Sonlarning turlari.
2. Tartib sonlarning yasalishi.
3. Sonlarning gapdagi vazifasi.

Yuzgacha bo'lgan miqdor sonlar. Tartib sonlarning yasalishi. Ularning jins, son va kelishikda o'zgarishi. Sonlarning aniqlovchi va kesim bo'lagi vazifasida qo'llanishi.

Tartib sonlar sanoq songa -van suffiksini qo'shish bilan yasaladi. Birdan beshgacha bo'lgan, shuningdek 6 sanoq soni bu qoidadan mustasnodir. YA'ni «pehla, dusra, tisra, chaotha, chhata» kabilar.

Tartib son jins va kelishikda o'zgaradi: agar ot muannas birlikda bo'lsa, «vin», agar ot muzakkar jinsda, ko'plikda bo'lsa, «ven» bo'ladi.

Sonlar gapda avvalo, aniqlovchi vazifasida keladi. Kesim vazifasini ham bajarishi mumkin. U substantivatsiyaga ham uchrashi mumkin, ya'ni otlashib keladi.

Savollar:

1. Qaysi tartib sonlar qoidaga ko'ra yasalmaydi?
2. Tartib sonlar gapda qanday gap bo'lagi bo'lib keladi?

3. Tartib sonlar jins va kelishikda o'zgaradimi?

8- MA'RUZA RAVISH

Ma'ruza rejas:

1. Ravishlarning ma'nosiga ko'ra turlari.
2. Ravishlarning tuzilishiga ko'ra turlari.
3. Ravishlarning gapdagi vazifalari.

Ravish deb ish-harakat yoki holatning qay tarzda, qachon, qaerda amalga oshganini bildiruvchi so'z turkumiga aytiladi. Urdu tilida ravishlar tuzilishiga ko'ra sodda, murakkab va qo'shma ravishlarga bo'linadi.

Urdu tilida ravish o'rnida kulaniladigan ravish va olmoshlar kupincha otdan yasaladi. Ularning ba'zisi (poslelogli yoki poslelogsiz) otlarning vositali kelishik shakliga teng keladi:

«bagal me» yonida («bagal» m.r. yon, bikin)
«jaldi se» tez, jadal («jald» j. r. tezlik, kistalang)
«jagah jagah» har tomonda, har erda, joylarda(«jagah» j. r. joy)
Boshkalari esa ot va sifat yoki olmosh birikmasi shaklida buladi:

«Achchhi tarah» yahshilab
«Kisi tarah» bir amallab, u-bu kilib
«Dayin taraf» chapda, chapdan
«Har jagah» hamma joyda.

Otdan kelib chikishi sabab kup ravish va ravishlashgan olmoshlar kelishikda turlanadi, posleloglar bilan birga keladi. Ularning ba'zilar bir kator birlamchi va ikkilamchi posleloglar, ba'zilar esa fakat ikki yoki uch poslelog bilan ishlatilishi mumkin.

«Upar» yukorida, tepada, yukoriga, tepaga (tugri shakli)
«Upar ka» «yukoridagi» va h.k.z.

Urdu tilida ravishlarning vositali shakliga uhshash bir kator ikkilamchi murakkab posleloglar bor. Boshkacha aytganda, usha birikmalarni uzi mustakil kelganda (yakka) ravish, ba'zi suzlarning karatkich kelishigi shakli bilan kushilib kelganda murakkab poslelogga aylanadi:

Ravishlar	Murakkab posleloglar.
«Upar tak charho» Tepagacha (yuqorigacha) chiq. «Pas se karen guzarti hen» Enginadan mashinalar o'tyapti «Ye us ke jane ke do din bad ka vakea he» Bu vokea u ketganidan ikki kun keyin ruy berdi. «Pichhe se avazen ati hen» Orqadan ovozlar kelyapti.	«Daraht ke upar tak charho» Darahtni tepasiga chiq «Hamare pas se karen guzarti hen» Enginamizdan mashinalar o'tyapti. «Ye us ke jane ke bad ka vakea he» Bu voqea u ketgandan keyin ro'y berdi. «Darvaze ke pichhe se avaz a rahi hen»

Eshik orqasidan ovoz kelyapti.

Savollar:

1. Ravishlarning vositali kelishigi qanday yasaladi?
2. Otdan kelib chiqqan ravishlarni ko'rsating.
3. Murakkab poslelglar qachon ravish bo'lib keladi?

**9- MA'RUZA
OLMOSH**

Ma'ruza rejasi:

1. Olmoshning ta'rifi.
2. Kishilik, ko'rsatuv, so'roq, noaniqlik olmoshlari Nisbiy va jamlovchi olmoshlar.
3. Substantiv /otsimon/, ad'ektiv /sifatsimon/ va adverbial /ravishsimon/ olmoshlar.
4. Kishilik olmoshlarining ma'nosi.

«Koi» noanik olmoshi substantiv - ad'ektiv (otlashgan - sifatlashgan) olmosh hisoblanadi. U biror shahsni yoki shahs, predmetning belgisini anglatadi va “kimdir”, “kandaydir”, “biron”, inkor yuklamasi “ nahin ” bilan “hech kim”, “hech kanday” ma'nolarini bildiradi.

Masalan: «Vahan koi he?» U erda kimdir bormi?

«Vahan koi aorat khari he» U erda kandaydir ayol turibdi.

«Muje parhne ko koi kitab do»

Menga ukishga bironta kitob ber.

Oddiy olmoshlar bitta suzdan iborat buladi: «koi, me, vahan» va hokazo.

Kushma olmoshlar mustakil ma'noli suz va poslelog yoki yuklama birikmasiga ega buladi, masalan:

«is lie» shuning uchun

«ek to» avvalo

«ek sa» bir hil

«bahot sa» kup, kup sonli

Murakkab olmoshlar esa ikki yoki undan ortik mustakil ma'noli suzning birikmasidir. Bu birikmalar tarkibida poslelog yoki yuklama ham, shuninggdek, «na» inkor yuklamasi bulishi mumkin. Masalan:

“Olmosh -olmosh”:

«sab kuchh» hamma narsa

«bahot kuchh» kup narsa

«eysa-veysa» unaka - bunaka.

Savollar:

1. Olmoshlarning qaysi turlarini bilasiz?
2. Oddiy olmoshlar qanday bo'ladi?
3. Qo'shma olmoshlarning tarkibini ayting.
4. Murakkab olmoshlar qanday bo'laklardan iborat bo'ladi? Misollar keltiring.

10- MA'RUZA

FE'L

Fe'ning shahssiz shakllari

Infinitiv

Ma'ruza rejasi:

1. Infinitivning fe'llik va otlik hususiyatlari.
2. Infinitivning vositali asosi. Uning ba'zi posleloglar bilan ishlatilishi. /baad, pehle, ko, se, ka va boshqalar bilan/.

3. Infinitivning gapdagi vazifalari

Infinitiv urdu tilida otga o'hshash fe'l shaklidir. Boshkacha aytganda, infinitiv fe'l va otga hos hususiyatlarga ega.

Fe'l shakli sifatida infinitiv «kya karna» va «kya hona» kabi fe'liy savollarga javob buladi va unga tuldiruvchi, hol hatto shartli ega ham birikib keladi.

Masalan:

- «kitab parhna» kitob ukimok. (kitab- tugri tuldiruvchi.)
- « achchhi tarah parhna » - yahshi ukimok. (achchhi tarah - ravish holi).
- « ghar me beythna » - uyda o'tirmok. (ghar me - o'rin holi).
- «darvaza khulna» - eshik ochilmoq (darvaza -shartli ega).

Ohirgi suz birikmasini gap bilan solishtiring:

darvaza khulna ---- darvaza khulta he.

Fe'l shakli sifatida infinitiv, shuningdek, uziga tobe bulgan boshka fe'l shakllari bilan - infinitiv, ravishdosh va boshkalar bilan ham birikib kelishi mumkin.

Masalan: «kam karna pasand karna» - ishlashni yoqtirmoq

«hanskar jina» - kulib yashamok.

Ot kabi infinitiv jins kategoriyasiga ega - muzakkar jinsiga mansub, shuningdek, kelishiklarda kullanadi - posleloglar bilan birikadi. Infinitivning vositali kelishikdagi negizi -e kushimchasiga ega: «karne, hone».

Ot kabi infinitiv yakka holda va boshqa suzlar bilan birga otga hos hamma funktsiyalarda kelishi mumkin.

Masalan:

«har kam vaqt par karna achchhi bat he» -

Har ishni o'z vaqtida kilish - yahshi (ega)

«ek taalibe ilm ka farz mehnat se parhna he »

Talabani burchi - tirishib ukimok (ot - kesim)

«SHehr me kapra banane ka karhana he»

SHaharda tukimachilik korhonasi bor (aniqlovchi)

«Bekar beythne se kuchh karna achchhahe»

Bekor utirgandan kura biron ish qilish yahshi (vositali tuldiruvchi).

Sifatdosh

Vala li sifatdosh. Uning yasalihi /poslelogsiz vositali infinitiv + morfema/. Uning ma'nolaridan bittasi: odatdagi ish- harakat. *Vala* li sifatdoshning jins, son va kelishikda o'zgarishi. Uning aniqlovchi vazifasida ishlatilishi. Ushbu sifatdoshning otlashuvi.

Ravishdosh

Absolyutiv ravishdosh, uning yasalihi: fe'lining o'zagi + *kar*, ba'zan *ke* morfemasi. Ma'nosi: a) asosiy fe'ldan anglashilgan ish- harakatdan oldin bo'lib o'tgan ikkinchi darajali ish- harakat; b) asosiy ish- harakat bilan bir vaqtda bo'ladigan ikkinchi darajali ish- harakat. Ushbu ravishdoshning gapdagi vazifalari: a) ikkinchi darajali, shakllanmagan kesim b) payt holi; v) ravish holi va h.k.z.

Savollar:

1. Infinitiv fe'lining qanday shakli?
2. Infinitivning ismiy belgilarini sanang.
3. Infinitivning fe'liy belgilarini ayting.
4. Qanday fe'l shakllari bilan birikib keladi?

11-MA'RUZA

FE'LNING ANIQ SHAKLLARI

Odatdagi hozirgi zamon

Ma'ruza rejasi:

1. Odatdagi hozirgi zamon shaklining yasalihi.
2. Bu zamon shaklining qo'llanilishi.
3. Inkor shaklining yasalihi.

YAsalihi: etakchi fe'lning o'zagi va ko'makchi *hona* fe'lining hozirgi zamon sodda shakli /*karta he*/. Ma'nosi: a) odatda, muntazam ravishda yoki vaqti-vaqti bilan bo'ladigan harakat. b) ayni hozir, gapirilayotgan paytda sodir bo'layotgan ish- harakat. v) yaqin o'rtada, hozirgina bo'ladigan ish- harakat. Odatdagi hozirgi zamon bilan birga ishlatiladigan so'zlar. Ushbu fe'l shakli bilan *nahin* inkor yuklamasi ishlatilishi. Odatdagi hozirgi zamonning qisqa shakli /ko'makchi fe'l shaklining tushib qolishi/ O H Z qisqa shaklining faqat inkor yuklama/*nahin*/ bilan ishlatilishi. *Hona* va *rehna* fe'llarining OHZ shakllarini taqqoslash.

Boshlang'ich ish-harakat fe'llari

YAsalihi: etakchi fe'lning poslelogsiz infinitiv shakli va ko'makchi fe'l *lagna* bilan birikmasi. Ma'nosi: etakchi fe'ldan anglashilgan ish- harakatning boshlanishi. Bu qo'shma fe'llarning OHZ da ishlatilishi.

Savollar:

1. H.O.Z. shakli qanday yasaladi?
2. Bu zamon shakli qachon qo'llaniladi?
3. «Karna» va «Hona» fe'llarini tuslang.

12- MA'RUZA

FE'LNING BUYRUQ SHAKLI

Ma'ruza rejasi:

1. Buyruq maylining shakllari.
2. «Tum» olmoshiga muvofiq keladigan shakllar.
3. «Aap» olmoshiga muvofiq keladigan shakllar.

Umumiy ma'nosi: ish- harakatni bajarishga undash, buyruq, iltimos, taklif, maslahat va h.k.z. Buyruk maylining ning ikki shakli: odatdagi shakli /*karo, aao*/ va odob- ehtirom shakli /*likhiye, boliye*/; /*hona, dena, lena karna*/ fe'llari bilan ikki shaklning yasalishi. Buyruq mayli ushbu shakllarning alohida ma'nolari va ularning ishlatilishi. Ular bilan ishlatiladigan inkor yuklamalar.

Ot, sifat, olmosh, fe'ning hamda qaratqich kelishikning odob - ehtirom shakli.

Posleloglar

Ularning vazifasi: bir so'zning ikkinchi bir so'zga bo'lgan munosabatini ifodalash, vositali kelishiklar yasash. Birlamchi va ikkilamchi posleloglar. Sodda va qo'shma posleloglar. Ot va ravishlarga teng sodda posleloglar. Birlamchi poslelog *ke* dan keyin keluvchi, *ki* dan keyin keluvchi va *se* dan keyin keluvchi ikkilamchi sodda posleloglar. Murakkab posleloglarning yasalishi: a) ikki birlamchi poslelogning birikmasi, b) ot + birlamchi poslelog, v) ikkilamchi poslelog + birlamchi poslelog.

Savollar:

1. Buyruq mayli qachon qo'llaniladi?
2. Buyruq maylining nechta shakli bor?
3. «Tum» olmoshi uchun buyruq shakli qaysi suffiks bilan yasaladi?
4. «Aap» olmoshi uchun buyruq shakli qaysi suffiks bilan yasaladi?

13 - MA'RUZA SINTAKSIS

Sodda yoyiq gap

Ma'ruza rejasi:

1. Sodda yoyiq gapda so'zlar tartibi.
2. Gapning tarkibi.
3. Bir sostavli gaplar.
4. Ikki sostavli gaplar.

Aniqlovchi

Aniqlovchining ifodalanishi: a) sifat bilan, b) sifatlashgan so'zlar bilan, v) so'zlarning sifatlashgan shakllari bilan. Aniqlovchining aniqlanmish bilan moslashuvi. Bitta otga taalluqli ikki- uchta aniqlovchining qay tartibda kelishi. Ikki- uchta otga tegishli bitta aniqlovchining moslashuvi. Urducha aniqlovchining o'zbek tiliga hamda o'zbekcha aniqlovchining urdu tiliga tarjima qilinishi.

IKKINCHI YARIM YILLIK

Soatlar taqsimoti:

ma'ruza- 100

amaliy- 48

reyting- 16

jami-164

GRAMMATIKA

1- MA'RUZA

MORFOLOGIYA

Ot

Ma'ruza rejasi:

1. Otlarning ergativ kelishigi.
2. O'timli va o'timsiz fe'llar.
3. Ergativ kelishigining faqat tugal zamonlarda qo'llanilishi.
4. Tugal zamondagi fe'lining o'timli bo'lishining zarurligi.

Fe'llar tugal zamonlarda qo'llanganda ularning o'timli-o'timsiz ekanligi ahamiyatlidir. Agar fe'llar o'timli bo'lsa, bu gap ergativ konstruktsiyada keladi, ya'ni ot «ne» poslelogi bilan qo'llanadi: «me ne likha»- men yozdim.

Ammo bunda gapda to'g'ri to'ldiruvchining mavjud yoki mavjud emasligi katta rol o'ynaydi.

A) agar gapda to'g'ri to'ldiruvchi bo'lsa, kesim ega bilan emas, shu to'ldiruvchi bilan jins va sonda moslashadi: «me ne kitab parhi»- men kitob o'qidim (kitab- muannas, birlik), shuning uchun «parhi»

B) agar gapda to'ldiruvchi «ko» poslelogi bilan kelsa, yoki umuman to'ldiruvchi bo'lmasa, gap neytral konstruktsiyada bo'ladi: «me ne kitab ko parha» - men kitobni o'qidim. (kitab «ko» poslelogi bilan kelgan), shuning uchun parha.

Savollar:

1. Ergativ konstruktsiya qachon qo'llaniladi?
2. Neytral konstruktsiyada gapning tarkibi qanday bo'ladi?
3. «Ko» poslelogi bo'lganda kesim qanday shaklda bo'ladi?

2 - MA'RUZA

FE'L ZAMONLARI

Odatdagi o'tgan zamon

Ma'ruza rejasi:

1. O'tgan oddiy zamon shaklining yasaliishi.
2. Fe'lining shahslarda tuslanishi.
3. O'tgan oddiy zamonning qo'llanilish hollari.
4. Inkor shaklining yasaliishi.

Yasaliishi: asosiy fe'lining notugal sifatdosh shakli «hona» ko'makchi fe'lining o'tgan zamondagi oddiy shakliga qo'shiladi.

Qo'llanilishi: O'tgan zamonda bo'lib o'tgan, takroriy tugallanmagan ish-harakatni bildiradi. «Karna» fe'lining tuslanishini ko'raylik.

«Me karta tha»- Men qilar edim.

«Tu karta tha»- Sen qilar eding.

«Ye, vo karta tha»- U, bu qilar edi.

«Ham karte the»- Biz qilar edik.

«Aap karte the»- Siz qilar edingiz.

«Tum karte the»- Sen qilar eding.

«Ye, vo karte the»- Ular, bular qilar edilar.

Inkor shakli «nahin» inkor yuklamasi bilan yasaladi: «Ham nahin ate the» - Biz kelmas edik.

Savollar:

1. O'tgan oddiy zamon shakli qanday yasaladi?
2. Bu zamon shakli qachon qo'llaniladi?
3. «Karna» va «Hona» fe'llarini tuslang.

3- MA'RUZA

KELASI ODDIY ZAMON

Ma'ruza rejası:

1. Kelasi oddiy zamon shaklining yasalishi
2. Fe'lining birlik va ko'plik sonlarida tuslanishi.
3. Kelasi oddiy zamon bildirgan ma'nolar.

Yasalishi: Kelasi oddiy zamon fe'li fe'l o'zagiga mahsus qo'shimchalarni qo'shish bilan yasaladi. Quyida mazkur qo'shimchalarni keltiramiz.

Birlik soni				Ko'plik soni			
muzakkar			muannas		muzakkar		muannas
m	me	-	-	-biz	h	-	-engi
en	y	uga	ugi		am	enge	
s	tu	-	-	-siz	a	-	-engi
en		ega	egi		p	enge	
u	vo	-	-	-	t	-	-ogi
		ega	egi	sen	um	oge	
b	ye	-	-	-	v	-	-engi
u		ega	egi	ular	o	enge	
				-	y	-	-engi
				bular	e	enge	

Qo'llanilishi: bu zamon shakli kelajakda amalga oshadigan ish-harakatni anglatadi. Bu ish-harakat takroriy, tugallanmagan ish-harakat bo'lishi mumkin, shuningdek, tugallanish, nihoyasiga etgan bo'lishi ham mumkin. Ish-harakatning bu xususiyatlari ko'pincha kontekstdan yoki fe'l bilan birga qo'llangan ba'zi so'zlardan anglashilishi mumkin. Masalan:

«Is hafte saheliya do bar milengi» - «Dugonalar bu haftada ikki marta uchrashishadi» (takroriy ish-harakat)

«Mey us se milunga aor ye bat zarur us se kahunga» - «Men u bilan uchrashib, bu gapni albatta unga aytaman» (tugal ish-harakat).

«Tum kal kya karoge? Kitabe parhoge ya ti-vi dekhoge?» - «Sen ertaga nima qilasan? Kitob o'qiysanmi, yoki televizor ko'rsanmi?» (notugal ish-harakat).

Savollar:

1. Kelasi oddiy zamon qanday ish-harakatni anglatadi?
2. Bu zamon shakli qaysi qo'shimchalar yordamida yasaladi?
3. Ish-harakat qanday ma'no qirralariga ega bo'ladi?
4. «ana» «kelmoq» fe'lini kelasi oddiy zamonda tuslang.

4 - MA'RUZA

**«HONA» FE'LINING O'TGAN ZAMON
ODDIY SHAKLI**

Ma'ruza rejasi:

1. «hona» fe'lining gapdagi ma'nolari.
2. «hona» fe'li bog'lovchi fe'l vazifasida.
3. «hona» fe'li mustaqil fe'l o'rnida

«hona» fe'lining o'tgan zamon oddiy shakli quyidagilardir:

	tha	«edi»
muzakkar j.	the	«edi, edilar»
	thi	«edi»
muannas j.	thi	«edi, edilar»

Birlikda	Ko'plikda
me	ham
thi, tha tu	tum
ye	thi, the ap
vo	ye
	vo

Masalan:

kal shaam ke vaqt me ghar me tha - Kecha kechqurun men uyda edim.

un dino tum ek chhote bachche the - U paytda sen yosh bola eding.

Saida, kya tum kal bimaar thi ? - Saida, sen kecha kasalmiding? (kasal edingmi?).

darvaza khula tha aor khirkiya band thi - Eshik ochiq, derazalar esa yopiq edi.

«hona» fe'lining bu shakli bilan odatda «nahi» inkor yuklamasi qo'llaniladi. Masalan:
us ke pas kuchh nahi tha - Uning hech narsasi yo'q edi.

Sarak itni chaori nahi thi - Ko'cha unchalik keng emas edi.

«hona» fe'lining o'tgan zamon oddiy shakli quyidagi vazifalarni bajaradi:

a) «bo'lmoq, mavjud bo'lmoq» ma'nosini bildirgan mustaqil fe'l o'rnida;

b) bog'lovchi fe'l vazifasida.

v) ko'makchi fe'l sifatida.

Savollar:

1. Muzakkar jinsi, birlikda «hona» fe'li qanday shaklga ega?

2. Muannas jinsidachi?

3. Mustaqil fe'l sifatida u qanday ma'nolarni bildiradi?

5 - MA'RUZA

O'TGAN ODDIY ZAMON

Ma'ruza rejası:

1.O'tgan oddiy zamon shaklining yasalishi.

2.Fe'lining shahslarda tuslanishi.

3.O'tgan oddiy zamonning qo'llanilish hollari.

4.Inkor shaklining yasalishi.

YAsalishi: asosiy fe'lining notugal sifatdosh shakliga «hona» ko'makchi fe'lining oddiy shaklini qo'shish bilan yasaladi.

Ma'nosi: o'tmishda odatda, muntazam suratda yoki vaqti- vaqti bilan bo'lib turgan ish- harakat. Ushbu zamon shakli bilan birga ishlatiladigan so'zlar. OO'Z qisqa shakllari. Odatdagi hozirgi zamon va odatdagi o'tgan zamon qisqa shakllarining bir hilligi.

Ikkala zamon qisqa shakllarining ishlatilishidagi farq: OHZ qisqa shaklining faqat *nahin* bilan ishlatilishi OUZ qisqa shaklining esa *na* bilan va inkor yuklamasiz ishlatilishi.

« karna » fe'lining o'tgan oddiy zamon (O'OZ) da tuslanishini ko'ramiz:

Birlikda:

me-	Men qilardim
tu- karta tha, karti thi	sen qilarding

ye-	
vo -	u qilardi

Ko'plikda:

ham-	biz qilardik
tum -	sen (siz) qilarding,
	qilardinglar

karte the, karti thi

ap -	siz qilar edingiz
ye -	ular qilar edilar.
vo -	ular qilar edilar.

O'tgan oddiy zamon o'tgan zamonda amalga oshgan doimiy, muntazam, tugallanmagan ish - harakatni bildiradi.

Hozirgi oddiy zamon va o'tgan oddiy zamonni quyidagi gaplarda taqqoslab ko'ramiz:

pehle ham gao me rehte the, ab shehr me rehte he - Avvallari biz qishloqda yashar edik, endi esa shaharda yashayapmiz.

pichhle sal saheliya aksar milti thi. ab vo kam milti he- O'tgan yili dugonalar tez - tez uchrashib turishardi. Hozir onda-sonda uchrashadilar.

Hozirgi oddiy zamonda bitta inkor yuklamasi « nahi » ishlatiladi, o'tgan oddiy zamonda esa ikkita - «nahi» va «na» inkor yuklamalari qo'llaniladi. «na» bilan «hona» fe'lining oddiy shakli ishlatilmaydi, «nahi» bilan esa aksincha.

Taqqoslang :

Hozirgi oddiy zamon	O'tgan oddiy zamon
ham nahi jante	ham nahi jante the
ham na jante	
saheliya nahi milti	saheliya nahi milti thi
	saheliya na milti

Savollar:

1. Oddiy o'tgan zamon shakli qanday yasaladi?
2. Notugal sifatdosh son va jinsda qanday o'zgaradi?
3. Oddiy o'tgan zamon shakli qachon qo'llaniladi?
4. «Ana» va «jana» fe'llarini tuslang?

6 - MA'RUZA

TUGAL SIFATDOSH

Ma'ruza rejasi:

1. Tugal sifatdosh - fe'l formasi.
2. Tugal sifatdoshning yasalishi.
3. Uning son va jinsda o'zgarishi.
4. Istisno hollari.

Tugal sifatdosh fe'l o'zagiga -a qo'shimchasini qo'shish bilan yasaladi. Agar o'zak unli harf bilan tugasa, o'zak bilan -a qo'shimchasi o'rtasida y harfi orttiriladi. Masalan:

likhna □ likh □ likha
lana □ la □ laya
sona □ so □ soya

Tugal sifatdosh son va jinsda o'zgaradi. Quyidagi to'rtta qo'shimchaga ega: muzakkar jinsida - a, e/e; muannasda esa- i, i.

Misol uchun : likha, likhe, likhi, likhi

laya, lae, lai, lai

soya, soye, soyi, soyi

hona, jina, pina, dena, lena, jana, karna kabi fe'llarning tugal sifatdosh shakli quydagicha yasaladi:

kiya, kiye, ki, ki

gaya, gaye, gayi, gayi

liya, liye, li, li

diya, diye, di, di

piya, piye, pi, piyi

jiya, jiye, jiyi, jiyi

hua, huye, hui, huyi

Savollar:

1. Tugal sifatdosh qanday qo'shimchalarga ega?
2. Istisno hollarini yozib ko'rsating.
3. U son va jinsda qanday o'zgaradi?

7 - MA'RUZA

TUGALLANGAN O'TGAN ZAMON

Ma'ruza rejasi:

1. Tugallangan o'tgan zamon shaklining yasalishi.
2. Bu zamon shaklining qo'llanilish hollari.
3. Ergativ konstruktsiyaning ishlatilishi.

YAsalishi: fe'lining tugal asosiga teng. Ma'nosi: o'tmishda ma'lum bir paytda bo'lib o'tgan ish-harakat, tugallangan, tugallanmagan, takrorlangan yoki cho'zilgan bo'lishidan qat'iy nazar. T.O'.Z bilan alohida bir ish-harakatning yoki birin-ketin bo'ladigan ish-harakatlarning ifodalanishi. Ushbu fe'l shakli bilan birga ishlatiladigan so'zlar. O'timli fe'l T.O'.Z shaklining ergativ konstruktsiyalarda ishlatilishi. Bu gaplarda kesimning moslashuv qoidalari. *Nahin* yuklamasining qo'llanilishi.

Fe'llar tugal zamonlarda qo'llanganda ularning o'timli-o'timsiz ekanligi ahamiyatlidir. Agar fe'llar o'timli bo'lsa, bu gap ergativ konstruktsiyada keladi, ya'ni ot «ne» poslelogi bilan qo'llanadi: «me ne likha»- men yozdim.

Ammo bunda gapda to'g'ri to'ldiruvchining mavjud yoki mavjud emasligi katta rol o'ynaydi.

A) agar gapda to'g'ri to'ldiruvchi bo'lsa, kesim ega bilan emas, shu to'ldiruvchi bilan jins va sonda moslashadi: «me ne kitab parhi»- men kitob o'qidim (kitab- muannas, birlik), shuning uchun «parhi»

B) agar gapda to'ldiruvchi «ko» poslelogi bilan kelsa, yoki umuman to'ldiruvchi bo'lmasa, gap neytral konstruktsiyada bo'ladi: «me ne kitab ko parha» - men kitobni o'qidim. (kitab «ko» poslelogi bilan kelgan), shuning uchun parha.

«Uthna» va «lena» fe'llarining o'tgan tugallangan zamonda tuslanishini ko'rib chiqamiz:

Birlikda:

	Muannas j.	Muzakkar j.
Me		
tu	uthi, li	utha, liya
ye		
vo		

Ko'plikda:

		tum
uthi	□	uthe, liye ham
		ap
		ye
		vo

O'tgan tugallangan zamon shakli o'tgan zamonda muayyan vaqtda bo'lib o'tgan ish-harakatni bildiradi. Bu ish-harakat tugallangan va notugal bo'lib, bir marta, ko'p marta, uzoq davom etgan bo'lishi mumkin. Ish-harakatning bunday belgilari asosiy fe'lining hususiyatiga, shu fe'l bilan qo'llangan so'zlarga yoki kontekstga bog'liq bo'ladi, misol uchun :

Aj me subah savere utha	Bugun men erta turdim.
Aj rat ko barish hui	Kecha kechqurun yomg'ir yog'di.
Kal din bhar tumne	

kya kiya? Kecha sen kun bo'yi nima qilding?
Bachchi rat bhar aram se soyi Qizcha tun bo'yi tinch uhladi.
Darvaza bar bar khula aor band hua Eshik bir necha bor ochildi va yopildi.

O'tgan tugallangan zamon shakli bilan «nahi» inkor yuklamasi qo'llaniladi, u asosiy fe'ldan oldin qo'yiladi, misol uchun:

Ma sari rat nahi soyi Ona tuni bilan uhlamadi.
Kal koyi nahi aya Kecha hech kim kelmadi.

Savollar:

1. O'tgan tugallangan zamon shakli qanday fe'l shakliga teng ?
2. O'timli fe'l bo'lganida qanday konstruksiya ishlatiladi?
3. O'tgan tugallangan zamon shakli qachon qo'llaniladi?
4. Istisno hollarini sanang.

8 - MA'RUZA

O'TIMSIZ VA O'TIMLI FE'LLAR

Ma'ruza rejasi:

1. O'timli fe'llarning asosiy hususiyati.
2. O'timsiz fe'llarning hususiyatlari.

O'timli fe'llar deb, ular anglatgan ish - harakat faqat sub'ekt /mazkur ish - harakatini bajaruvchi shahs/ bilan cheklanib qolmay, boshqa biror predmet yoki shahsga ham o'tishini, boshqa predmet yoki shahs ustidan bajarilishini bildirgan fe'llarga aytiladi. Boshqacha aytganda, o'timli fe'llar « kiya » - nima? va « kis ko » kimni? savollariga javob beradigan so'zlarni talab qiladi. Misol uchun:

Kitab parhna. Kiya parhna?
Kitob o'qimoq. Nimani o'qimoq?
Darvaza band karna. Kiya band karna?
Eshikni yopmoq. Nimani yopmoq?
Duston ko bulana. Kis ko bulana?
Do'stlarni chaqirmoq. Kimni chaqirmoq?
Kisi ko dekhna. Kis ko dekhna?
Kimnidir ko'rmoq. Kimni ko'rmoq?

O'timsiz fe'llar esa ular anglatgan ish - harakat boshqa shahs yoki predmetga aloqador bo'lmagan fe'llardir, balki faqat sub'ekt bilan cheklanadi. Boshqacha aytganda, ular « kiya » nima? va « kis ko » kimni? so'roqlariga javob bo'ladigan so'zlarga bog'lanmaydi. Ularga, masalan: Hansna, bolna, bethna, uthna, jana, ana va boshqalar misol bo'la oladi.

Urdu tilida o'tgan tugallangan /shuningdek, boshqa tugallangan zamon shakllari qo'llanilgan hollarda fe'lining o'timli yoki o'timsiz ekanligi muhim ahamiyatga ega.

Savollar:

1. O'timsiz fe'llar deb nimaga aytiladi?
2. O'timli fe'llar ish-harakatni bildiradi?
3. Ham o'timli, ham o'timsiz ish-harakatni anglatgan fe'llarni sanang.

9 - MA'RUZA

OLMOSHLARNING ERGATIV KELISHIGI

«Ap, ham, tum, tu, me» kishilik olmoshlari «ne» poslelogi bilan birikkanda o'zgarmaydi. «Me ne, tu ne, tum ne, ham ne, ap ne».

«Ye, vo, kaon, va koyi» olmoshlarining ergativ kelishigi quyidagicha yasaladi:

birlikda	ko'plikda	«log» ko'rsatkichi
ye□ is ne	ye□ inhon ne	bilan
vo □ us ne	vo □ unhon ne	ye log □
kaon □ kis ne	kaon □ kinhon ne	vo log□
koyi □ kisi ne		kaon log□

Misollar:

is ne puchha, us ne javab diya bu so'radi, u javob berdi.

inhon ne ham ko nahi dekha ular (anavilar) bizni ko'rmadi

inhon ne sachchi bat kahi ular (mana bular) rost gapni aytdi

kisi ne kisi ko nahi pehchana kimdir kimnidir tanimadi

ye habar kis ne nahi suni? Kim bu habarni eshitmadi?

Ye kin logon ne kaha? kim(kim-kimlar) shuni aytdi?

kinhon ne dekha? inhon ne ya Kim kurdi?Bularmi yoki
unhon ne? anavilarmi?

Savollar:

1. Qaysi olmoshlar «ne» bilan birikkanda o'zgarmaydi?
2. Qaysi kishilik olmoshlari «ne» dan oldin o'zgaradi?
3. «kaon» olmoshini ergativ kelishikda turlang.
4. «koi» olmoshini ergativ kelishikda turlang.

10 - MA'RUZA

MURAKKAB OT FE'LLAR

Ma'ruza rejasi:

1. Murakkab ot fe'llarning tarkibi.
2. Murakkab ot fe'llarning tarkibida ikkinchi bo'lak sifatida keladigan fe'llar.
3. Murakkab ot fe'llarning grammatik belgilari.
4. Murakkab ot fe'llarning erkin birikmalardan farqi.

Murakkab ot fe'llar ot (fe'ldan boshqa so'z turkumi) va fe'lning birikmasidan yasalgan murakkab fe'llardir. Bu fe'llarning ot kismi ot, o'zgarmas sifat, arabcha sifatdosh, ravish, predikativ ot va h.k.lar bulishi mumkin. (Predikativ ot deb, arabcha va inglizcha harakat nomlari, forscha fe'l o'zagi va boshkalarga aytiladi. Ular urduda biron fe'l bilan kullanib, so'z turkumiga hos grammatik belgilarga ega emas). Ikkinchi

bo'lak sifatida karna «kilmoq», hona, rehna «bo'lmoq, yashamoq», rakhna «ushlamoq, kuymoq», ana «kelmoq», jana «ketmoq» kabi fe'llar kelishi mumkin. Misol uchun:

pasand	ekmoq	pas	o	«did, tanlash»
ana		and	t	
yad	esda	yad	o	«hotira, ed»
rakhna	tutmoq		t	
hasil karna	kulga	has	s	«olingan, kulga
	kiritmoq	il	if.	kiritilgan»
dur karna	yukotm	dur	r	«uzoq»
	oq, barham		av.	
	bermoq			

Murakkab ot fe'l - bu shunday murakkab so'zki, u lug'aviy va grammatik jihatdan bir butunlikni tashkil etadi: u yahlit holda bitta savolga javob bo'ladi: gapda bitta yahlit gap bulagi vazifasini bajaradi. Murakkab ot fe'lining ot kismi jins, son va kelishik kabi grammatik belgilarga ega emas, buning natijasida gapning boshqa bulaklari bilan alokaga kirishmaydi, gapda hech qanday grammatik ahamiyatga ega bula olmaydi. Barcha grammatik vazifalarni fe'l kismi bajaradi.

Misol uchun:

yaha kitab faroht hoti he

Bu erda kitob sotiladi.

yaha kitab bikti he

faroht hona - murakkab ot fe'l. U yahlitligicha «bikna» «sotilmoq» bildirgan ma'noga ega. Unga ham sodda fe'lga kuyilgan savolni berish mumkin: kitabon ka kiya hota he? «Kitoblar nima kilinadi?» Javob: vo faroht hoti he. Vo bikti he. «faroht» so'zi muannas jinsidagi ot. Ammo murakkab fe'l tarkibida u jinsga ega emas, son va kelishikda ham uzgarmaydi. SHuning uchun boshqa so'zlar bilan bog'lanmaydi. «Yaha va kitab» so'zlari bilan faqat fe'l kismi bo'lgan «hona» munosabatga kirishadi.

Savollar:

1. Murakkab ot fe'llarning tarkibini ayting.
2. Murakkab ot fe'llarning tarkibida qanday fe'llar qo'llaniladi?
3. Murakkab ot fe'llarning tarkibi erkin birikmalardan nimasi bilan farq qiladi.

11 - MA'RUZA

«OT + FE'L» TARKIBLI

FRAZEOLOGIK BIRIKMALAR

Ma'ruza rejasi:

1. «Ot+fe'l» tarkibli frazeologik birikmalarning komponentlari.
2. «Ot+fe'l» tarkibli frazeologik birikmalarning ot qismi.
3. «Ot+fe'l» tarkibli frazeologik birikmalarning erkin birikmalardan farqi.
4. «Ot+fe'l» tarkibli frazeologik birikmalarning ot fe'llardan farqi.

Urdu tilida ot (fe'l bo'lmagan so'z turkumi) va fe'ldan iborat birikmalar ko'p qo'llaniladi va ular frazeologik birikmalar deb ataladi. Bunday birikmalarning ot kismida ko'pincha ot va uzgaruvchan sifat, ba'zi hollarda fe'ldan boshqa so'z turkumiga hos so'zlar bo'lishi mumkin. Fe'l kismi esa karna «kilmoq», hona «bo'lmoq», ana «kelmoq», parna «tushmoq» fe'llari bilan ifodalanishi mumkin. Misol uchun:

tarjima	tarjima	tarjima	muz.	tarjima
karna	kilmoq	izzat	n.	hurmat
izzat	hurmat	sidha	mua	tug'ri, tik
karna	kilmoq	thik	sifat	yahshi
sidha	tug'rilamoq			
karna	moq			
thik hona	yahshilanoq, tuzuk			
	bo'lmoq			
nind ana	uyku	nind	mua	uyku
rah lena	bosmoq	rah	n.	yul
	yul olmoq		n.	
pichhe	ketiga	pichhe	ravis	«orkada»
parna	tushmoq	ha	h	orkaga
ha karna	rozalik			«ha»
	bermoq			yuklamasi

Savollar:

1. «Ot+fe'l» tarkibli frazeologik birikmalarning komponentlari sanang.
2. «Ot+fe'l» tarkibli frazeologik birikmalarning ot qismi nimadan iborat?
3. «Ot+fe'l» tarkibli frazeologik birikmalarning erkin birikmalardan farqi nimada?
4. «Ot+fe'l» tarkibli frazeologik birikmalarning ot fe'llardan farqini ayting.

12 - MA'RUZA

KUCHAYTIRMA QO'SHMA FE'LLAR

Ma'ruza rejasi:

1. Intensiv fe'llarning yasalishi.
2. Potentsial fe'llarning yasalishi.
3. Intensiv va potentsial fe'llarning bildirgan ma'nolari.
4. Urdu tilidagi bog'lovchilarning ma'no jihatdan turlari.

YAsalishi: etakchi fe'lning umumiy asosi + ko'makchi fe'l. Ko'makchi fe'llar. Ko'makchi fe'llar ifodalaydigan umumiy ma'no. Har bir ko'makchi fe'lning alohida ma'nosi. Kuchaytirma qo'shma fe'llarning rasmiy o'timli - o'timsizligi, ya'ni ularning ergativ konstruksiyada ishlatilish - ishlatilmasligi.

Potentsial qo'shma fe'llar

/Karne lagna/. Ko'makchi fe'l ifodalaydigan ma'no: a) etakchi fe'ldan anglashilgan ish-harakatning amalga oshuvi mumkin - nomumkinligi; b) ish-harakatning imkon bo'lmay amalga oshmay qolishi yoki keragicha amalga oshmasligi. Bu qo'shma fe'llarning rasman o'timsizligi. Aniq shakllarning yasalishi va ishlatilishi.

Bog'lovchilar

Ki va agar bog'lovchilari.

Bog'lovchi so'z /nisbiy olmosh/ «qachonki», «qachon» va uning ikkilamchi shakllari «qachonki», «qachon bo'lsa ham», «qachongacha».

Kuchaytiruv yuklamalari: «huddi», «ayni», «faqat», «mutlaqo», «ham», «hatto».

O'hshatish yuklamalari: «dek», «kabi», «o'hsham», «singari». *saa* ning sifat va boshqa so'zlar bilan birikishi. *Kitna*, *jeysa*, *itna* ning ot, olmosh bilan birikishi. Ot va olmoshning vositali asos shaklida va qaratqich kelishik shaklida kelishi. Yuklamalarning jins, son va kelishiklarda o'zgarishi. Yuklamali birikmalarnin gapdagi vazifasiga qarab, yuklamalarning ega yoki aniqlanmish bilan moslashuvi.

Savollar:

1. Intensiv fe'llar qanday yasaladi?
2. Potentsial fe'llar qanday yasaladi?
3. Intensiv va potentsial fe'llarning bildirgan ma'nolarida qanday farq bor?
4. Urdu tilidagi bog'lovchilarning ma'no jihatdan turlarini ayting.

13 - MA'RUZA

SINTAKSIS.

«KE» BOG'LOVCHISI

Ma'ruza rejas:

1. Ergash gap turlari.
2. Ergash gaplarning vazifalari.
3. Payt ergash gapli qo'shma gapning yasalishi.
4. SHart ergash gapli qo'shma gapning yasalishi.

Ke bog'lovchisi vositasida tuziladigan qo'shma gaplar. Ergash gap turlari: ega, kesim, to'ldiruvchi, hol ergash gaplar. *Kum*ladan ravish, miqdor daraja, maqsad, sabab ergash gaplar. Ergash gaplarning vazifasi: bosh gapdagi va boshqa ko'rsatish olmoshlarining mazmunini ochib berish va o'sha so'zlar bosh gapda qaysi vazifani ado etgan bo'lsa, o'sha vazifani ado etish. Bosh gapda *ye* olmoshining tushib qolishi mumkinligi.

Payt ergash gapli qo'shma gap

Kab nisbiy olmoshi va uning ikkilamchi shakllari ishtirokida tuziladigan payt ergash gaplar. Ularning alohida-alohida ma'nosi. *Kab* qo'llanganda qo'shma gapning ikkala bo'lagi o'rtasida *to* yuklamasi kelishi. *jab bhi* va *jab tak* qo'llanganda bu yuklamaning kelmasligi.

SHart ergash gapli qo'shma gap

SHart bo'lagining *agar* bog'lovchisi bilan va oqibat bo'lagining *to* bog'lovchisi bilan boshlanishi. *Agar* ning tushib qolishi mumkinligi, *to* ning tushib qolmasligi.

Savollar:

1. Ergash gap turlarini ayting?
2. Ergash gaplarning vazifalari nimadan iborat?
3. Payt ergash gapli qo'shma gap qanday yasaladi?
4. SHart ergash gapli qo'shma gap qanday yasaladi?

TAYANCH IBORALAR:

Fonetika.

Unli - undosh tovushlar, sof unli, burunaki unli, qisqa- uzun unli, diftonglar, undosh fonemalar, nafasli undoshlar, tserebral undoshlar, ikkilangan undoshlar, bo'g'in urg'usi, asosiy harflar, qo'shimcha harflar, grafik belgilar, zabar, zer, pesh, madda, sukun, hamza.

Morfologiya

Otlarning jinsi, muzakkar, muannas, mavhum otlar, ko'plik son, o'zgaras- o'zgaruvchan sifatlar, son va jinsda moslashuv, infinitiv, infinitiv ko'rsatkichi, fe'l o'zagi, mayl, hitob kelishigi, absolyutiv, qiyosiy daraja, ortirma daraja, sanoq sonlar, tartib sonlar, substantiv olmoshlar, ad'ektiv olmoshlar, substantiv-ad'ektiv olmoshlar, adverbial olmoshlar, kishilik-ko'rsatish olmoshlari, ko'plik ko'rsatkichi, noaniq olmoshlar, ravish turlari, tub ravishlar, yasama ravishlar, sodda ravishlar, murakkab ravishlar, birikmali ravishlar, fe'lining noaniq shakllari, inkor birikmasi, bog'lama fe'l, sodda posleloglar, murakkab posleloglar, birikmali posleloglar, «hona» fe'lining tuslanishi, fe'lining notugal sifatdoshi, to'g'ri kelishik, vositali kelishik, kelishik ko'rsatkichi, qaratqich kelishik, jo'nalish-tushum kelishigi, chiqish kelishigi, o'rin-yo'nalish kelishigi, ergativ kelishik, to'g'ri to'ldiruvchi, vositali to'ldiruvchi, murakkab fe'llar, verbal fe'llar, boshlanish fe'llari, o'timli-o'timsiz fe'llar, aniqllovchi ravishlar, hol ravishlar, so'roq olmoshlar, tartib sonlarning vositali o'zagi, «vala»li sifatdosh, «vala» morfemasi, kelasi oddiy zamon, fe'lining tuslanishi, nisbiy olmosh, yuklama, fe'lining tugal sifatdoshi, «hona» fe'lining o'tgan zamon oddiy shakli, tugal ish-harakat, notugal ish-harakat, takroriy ish-harakat, sub'ekt, ergativ konstruktsiya, ob'ektlilik konstruktsiya, neytral konstruktsiya, oddiy konstruktsiya, murakkab ot fe'llar, ot qism, fe'l qism, arabcha sifatdosh, forsha fe'l o'zagi, ko'makchi fe'llar, etakchi fe'llar, frazeologik birikmalar, fe'l bo'lmagan so'z turkumlari, erkin sintaktik birikma, grammatik butunlik, ma'no urg'usi, formal ko'rsatkich, murakkab intensiv fe'llar, asosiy ma'no tashuvchi fe'l, yordamchi fe'l, intensiv ish-harakat, ish-harakatning to'liq tugallanganligi, ish-harakatning sub'ekti, murakkab potentsial fe'llar.

Sintaksis

Ergash gapli qo'shma gap, teng bog'langan qo'shma gap, tobe bog'langan qo'shma gap, bir sostavli qo'shma gap, ikki sostavli qo'shma gap, ergash gap, bosh gap, payt ergash gap, nisbiy olmosh, yuklama, shart ergash gap, «ke» bog'lovchisi, ega ergash gap, to'ldiruvchi ergash gap, aniqllovchi ergash gap, kesim ergash gap, ravish holli ergash gap, miqdor-daraja holli ergash gap, o'rin ergash gap, maqsad ergash gap, sabab ergash gap, to'siqsiz ergash gap, ergash gapning o'rni, sodda yig'iq gap, sodda yoyiq gap, so'zlar tarkibi, aniqllovchining ifodalanishi, aniqllovchi va aniqlanmishning moslashuvi.

Adabiyotlar:

1. Barhudarov S. A. Razvitie indoariyskih yazikov i drevneindiyskaya kul'turnaya traditsiya. M. 1988
2. Barhudarov S. A. Slovoobrazovanie v hindi. M. 1963
3. Guru K. Grammatika hindi (I-II) M-62.
4. Zaharin B. A. Tipologiya yazikov Yujnoy Azii. M-87
5. Zograf G, A, K klassifikatsii indoariyskih yazikov problemi rodstva, M-82
6. Zograf G, A, YAziki Yujnoy Azii, M-92
7. Liperovskiy V. P. Glagol v yazike hindi. M-84.
8. Liperovskiy V. P. Imennie chasti rechi v hindi, M-78
9. Liperovskiy V. P. Kategoriya nakloneniya v sovremennom literaturnom hindi. M-64.
10. Muhammedjanov R. M i Muhammedjanova V. A. Uchebnik yazika urdu. T. 1992.
11. Ul'fitserov O. G. Slovoobrazovaniya v hindi. M-71.
12. Chatterdji S. K. Vvedenie v indoariyskoe yazikoznanie. M-77.

